

XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Xudoyberganov Elyorbek Muzaffar o'g'li

Nizomiy nomidagi UzMPU kechki bo'lim tarix fakulteti 401-guruh talabasi

Yakobjanov J.J

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva xonligining tashkil topish jarayoni, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslari tahlil etilgan. Shuningdek, xonlikning shakllanishida Shayboniylar, Arabshohiylar va Qo'ng'irotlar sulolalarining o'rni hamda Xorazm hududida markazlashgan davlat tuzilmasining vujudga kelishi haqida so'z yuritiladi. Maqolada tarixiy manbalar asosida Xiva xonligining dastlabki siyosiy tuzilmasi, boshqaruv tizimi va davlat mustaqilligini ta'minlashdagi omillar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Xiva xonligi, davlatchilik, tashkil topish, sulola, Shayboniylar, Arabshohiylar, Qo'ng'irotlar, Xorazm.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается процесс формирования Хивинского ханства, его политические, социальные и экономические основы. Также анализируется роль династий Шайбанидов, Арабшахидов и Кунгратов в становлении ханства и создании централизованного государства на территории Хорезма. На основе исторических источников освещены начальная политическая структура Хивинского ханства, система управления и факторы обеспечения государственной независимости.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, государственность, формирование, династия, Шайбаниды, Арабшахиды, Кунграты, Хорезм.*

Abstract: *This article analyzes the formation process of the Khiva Khanate, focusing on its political, social, and economic foundations. The study highlights the roles of the Shaybanid, Arabshahid, and Qongirat dynasties in establishing a centralized state structure in the Khorezm region. Based on historical sources, the article explores the early political organization of the khanate, its administrative system, and the key factors that ensured its independence.*

Keywords: *Khiva Khanate, statehood, formation, dynasty, Shaybanids, Arabshahids, Qongirats, Khorezm.*

Mo'g'ullar davrida bo'linib ketgan Xorazm aholisi Temuriylar davrida goh Samarqandga, goh Xurosonga bo'ysungan. Keyinchalik ular 1505-yilda ko'chmanchi o'zbeklarning, 1510-yilda esa Eron qizilboshlarining bosqiniga duch kelishdi. Shoybonixon vafotidan keyin esa Xorazm xalqi tez orada ozodlik uchun kurashni boshladi. Xorazm vohasi va uning atrofidagi yerlarda xalq ozodlik harakati 1511-yilda boshlandi. Vaziri shahrining ulamolari yordam so'rab Abul Mansur Elbarsxon ibn Berke sulton o'g'liga murojaat qildilar. O'zbeklarning shaharga yaqinlashib kelayotganini

eshitgan xalq kechasi qizilboshlarni o'ldira boshladi. G'alaba haqida tarixchi Abulg'oziy Bahodirxon shunday yozgan:

"Katta to'y qilib, o'zbek va sartlarning barchasi yig'ilib, ittifoq bilan tarix to'qqiz yuz o'n birda (ya'ni 1511-yilda), qo'y yilida Elbarsxonni xon qilib ko'tardilar."¹

Shundan so'ng, Vazirga qarashli Yangi shaharga Bilbars hokim etib tayinlandi, Tirsak shahriga esa yana bir o'zbek hokimi qo'yildi.

Elbars va Bilbars Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybonning avlodi Arabshoh naslidan bo'lganliklari sababli, ularning xonlik sulolasi Arabshohlar deb ham atalgan. O'zbek xonligi tashkil etilib, oradan uch oy o'tganidan so'ng, Elbarsxon Urganchni egallash maqsadida qo'shin tortib keldi. Shahardan yarim farsax masofada bo'lgan jangda Elbarsxonning qo'li ustun kelib, hokim Subhonquli boshchiligidagi qizilboshlar va ularning ittifoqchilari mag'lub etildi. Urganchni egallagan Elbarsxon Dashtda qolgan Yodg'orxon avlodlariga chopar yubordi. Oradan sal vaqt o'tib, Abulaxonning bir o'g'li va Amnaxonning olti o'g'li eldoshlari bilan birga Xorazmga keldilar. Ularning kuchiga tayangan Elbarsxon qisqa muddatda Xiva, Hazorasp va Kat shaharlarini egalladi. Keyinchalik, ukasi Bilbars lashkarlari ko'magida Elbarsxon Xurosonga qarashli Mahnacha va Durun degan yerlarga, shuningdek turkmanlarning Abulxon va Mang'ishloq hududlariga tez-tez bosqinlar uyushtirib turdi.

Shunday qilib, Elbarsxon davrida davlatning siyosiy geografiyasi shakllanib, janubda Xuroson, shimolda Orol, g'arbda Kaspiy dengizi, sharqda esa Buxoro xonligi bilan chegaradosh bo'ldi. Xorazmga kelib joylasha boshlagan o'zbek urug'-qabilalari vakillari turk-mo'g'ul an'analariga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etib, xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsata boshladilar. Bu davrda o'z hududlarini kengaytirish va daromadliroq mulklarni egallashga intilgan o'zbek sultonlari o'rtasidagi o'zaro kurashni kuchaytirgan "udel-mulk tizimining" salbiy jihatlari yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Akademik Ya. G'ulomov to'g'ri ta'kidlaganidek, boshqaruvning udel tizimi birlashishga yordam berish o'rniga, Xorazm kabi hosildor mamlakat xo'jaligining tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'lgan edi². 1516-yilda Elbarsxon vafotidan so'ng, uning farzandlari o'rtasida taxt va mansab uchun kurash boshlandi. Shu davrda Yodgorxonning nabiralari orasida Berkening o'g'li Sultonhojidan yoshi kattaroq kishi yo'q edi. Shu bois uni Vazirga olib kelib, xon qilib ko'tardilar. Sultonhojining qo'shini kam bo'lgani uchun u atrofdagi dushmanlariga qattiq zarba bera olmadi.

Uning vafotidan so'ng esa taxtga Abulaxonning o'g'li Hasanquli chiqdi.

Endilikda yangi xonning taxti Vazirda emas, balki Urganchda joylashgan edi. Shu vaqtgacha Urganchda ark bo'lmagan, Eshsulton degan amaldor shahar arkin qurdirdi. Oradan biroz vaqt o'tib, barcha o'zbek sultonlari Urganchga hujum uyushtirib, shaharni qamal qildilar. Abulg'oziy shunday yozgan: "Urganch ulug' shahar edi. Tez orada oziq-ovqat tanqisligi boshlandi. Bir eshakning boshi qirq-ellik tanga bo'ldi, ammo topilmas edi."³ O'ta og'ir muhtojlikni boshidan kechirgan Urganch aholisi to'rt oy davom etgan

¹ Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi Turk. — Toshkent: Fan, 1992.

² G'ulomov Yo. Xorazmning sug'orma dehqonchiligi tarixi. — Toshkent: Fan, 1957

³ Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi Tarokima. — Toshkent: Fan, 1990

qamal natijasida taslim bo'ldi. Shahar bosib olingach, Hasanquli va uning katta o'g'li Bilol Sulton o'ldirildi.

Urganchda Sufiyon xon deb e'lon qilindi. Vazir, Yangishahar, Tirsak, Xuroson, Durun, Mang'ishloq hamda turkmanlarning ko'pgina ovullarini boshqarish Sultong'ozini boshchiligidagi Berke sultonning nabiralari topshirildi. Amudaryoga yaqin joylashgan Xiva, Hazorasp, Kat, Bo'ldumsoz va Ingichka, Kopettog' etaklaridagi Bog'obod, Nisoy, Obivard, Chahordeh, Mahna, Chacha aholisi hamda daryo irmoqlari bo'yida yashovchi Abulxon va Dehiston turkmanlari Amnaxonning to'rt o'g'li o'rtasida bo'lib olindi. Xonning buyrug'iga ko'ra, barcha amaldorlar soliq yig'ib, uni poytaxtga yuborib turishlari kerak edi. Xorazmda yashab qolgan o'zbeklar hukmdorlari bilan turkmanlar o'rtasidagi munosabatlar asta-sekin keskinlasha boshladi. Ayniqsa, ersari, adaqli, xizir, ali eli, tevachi kabi turkman urug'larining oqsoqollari elat bo'yniga yuklangan soliqlardan norozi edilar. Sababi, katta-kichik elatlarga soliq yig'ish uchun yuborilayotgan amaldorlar soni 40 dan oshib ketgan, ularning zulmi va talabchanligi haddan ziyod ortgan edi. Soliq yig'uvchilar o'ldirilgani haqidagi xabar Sufiyonning to'rt ukasi bilan birga turkmanlar ustiga qo'shin tortishiga sabab bo'ldi. Ersari elatiga yetib kelgan Sufiyon qo'shinlari aholining katta-kichigini ayamasdan qirg'in qila boshladi. O'ldirilgan 40 o'zbekning qoni uchun turkmanlarga "40 ming qo'y o'lpon to'lash majburiyati" ⁴ yuklatildi. 1522-yilda Sufiyonxon vafot etgach, Urganchdagi xon taxtiga Buchgaxon o'tqazildi. Uning davrida Buxoro xonligi lashkarlari Eron hududlariga ko'p marotaba yurish qilganliklari sababli, Eron shohi Tohmosp Buchgaxon bilan yaqin qarindoshlik rishtalarini o'rnatish maqsadida uning akasi Sufiyonning voyaga yetgan qizi Oyshabegiga uylangan. Bu nikoh Eron va Xorazm o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilab yubordi. Buchgaxon 1526-yilda vafot etgach⁵, Urganch taxti Avanishxon qo'liga o'tdi. Urganchga kelgan Durun hokimi Muhammadg'ozining Avanishxonning katta o'g'li Dinmuhammad tomonidan o'ldirilganligi Amnaxon o'g'illari hamda Elbarsxon avlodlari o'rtasida qonli to'qnashuvga sabab bo'ldi. Avanishxon Vazir yaqinidagi Qumkend degan joyda Sultong'ozining tarafdorlarini mag'lub etdi va Elbarsxon avlodidan bo'lgan 16 nafar xonni o'ldirdi. Qarindoshlari bilan Buxoroga ketgan Sultong'ozining katta o'g'li Umarqozi ukasi Sherqozi bilan birga Ubaydullaxon saroyida tarbiyalana boshladi. Ular biroz ulg'aygach, otalari mulkiga da'vogarlik qildilar. Vaziyatdan foydalangan Ubaydullaxon Toshkentdan Baroqxon, Samarqanddan Juvonmardxon, Hisordan esa Hamza Mahdiy sulton lashkarlarini Buxoroga to'pladi. 1538-yilda Buxoro qo'shinlari yaqinlashayotganini eshitgan Xiva va Hazoraspda yashayotgan Amnaxon o'g'illari Avanishxon oldiga qochib bordilar. Shundan so'ng, Avanishxon Urganchni tark etib, Ustyurt tomonga yo'l oldi. Ortidan yetib kelgan qo'shin Avanishxonni Bayot qiri etagida asir oldi. Ubaydullaxon uni Umarqoziga topshirdi va Umarqozi qasos olish niyatida Avanishxonni o'ldirdi. Ubaydullaxon Urganchni boshqarishni o'g'li Abdulazizga topshirdi.

⁴ Ogahiy M.R. Riyoz ud-davla. — Toshkent: Fan, 2009

Yangi hukmdor bilan birga, to'rt qismlarga bo'lingan o'zbek urug'larini boshqarish uchun Hisor, Samarqand, Toshkent to'ralari va Buxoro amaldorlari qoldirildi. Ubaydullaxon o'zi bilan Aqotoyning ayollari va bolalarini ham olib ketdi. Ammo ular orasida bo'lgan 18 yoshli Hojimxon Xorazmda yashirib qolishga muvaffaq bo'ldi. Kelajakda u (Hojimxon) Durun hokimi Dinmuhammad bilan maslahatlashib, Urganchga yurish rejasini tuzdi. Lashkar Qurdu deb atalgan joyga yetganda, unga Xizir eli va Adoqli turkmanlaridan ming kishi qo'shildi. Shahar bosib olingach, dorug'a va uning o'nga yaqin amaldori qatl etildi. Hazorasp dorug'asi esa qochib ketdi. Ushbu voqealar haqida xabar topgan Abdulaziz ham Urganchni tark etib, otasi oldiga shoshildi. Buxoro xoni Ubaydulla 40 ming askardan iborat katta qo'shinini Xorazmga yubordi. Buxoroliklarga Hazoraspni egallash nasib etganini eshitgan Dinmuhammad o'zining 3 ming kishilik lashkari bilan jangga kirishishga qaror qildi. "Buxoro qo'shinlari kunduzi dam oladi va kechasi yuradi" degan ma'lumot asosida, Shikast ko'li yaqinidagi yo'lning ikki tomoniga pistirma qo'ygan Dinmuhammad va Yusuf sulton lashkarlari buxoroliklar ustiga to'satdan hujum qilib, bosqinchilar ustidan g'alaba qozondilar⁶. Asir olingan Buxoro amaldorlari Xorazmdan haydab chiqarilgan barcha o'zbek sultonlari va ularning oila a'zolarini qaytarishga va'da berdilar. Ularni olib kelish vazifasi Hojimxonga topshirildi. Buxoroga borgan Hojimxonni Ubaydullaxon yaxshi qabul qildi va otasi hamda qarindoshlarini olib ketishga ruxsat berdi. Shundan so'ng Hojimxon Samarqanddan Jumanmardxonni, Hisordan Kolxon va uning otasi Aqatoyxonni olib, Urganchga qaytdi. 1547-yili Urganchda xon taxtiga chiqqan Kolxon davri tinchlik va obodonchilik davri bo'ldi. "Kolxon xon bo'ldi, bir pulga bir non bo'ldi"⁷, deb yozgan Abulg'oz. Kolxon otasi Aqatoyxonni Vazirga hokim qilib tayinladi. Xiva va Hazoraspni boshqarish esa Buchgaxonning o'g'illari Esh va Do'stga topshirildi. Ammo vaqt o'tib ulg'aygan Amnakhonning nabiralari orasida birlik bo'lmadi. Ular bir-biriga xavf solib, ayrimlari Buxoroga qochib ketdilar. Bu paytda Buxoroda Sufyonxonning Yunus ismli o'g'li ham bor edi. "Yunusxon aqliy, jasur va g'ayratli, so'zi qat'iy kishi edi"⁸, deb yozadi Abulg'oz. Yunusxon Mang'it hokimi Ismoilbiyga kuyov bo'lib, 1556-yilda "qaynotamni ko'rib kelaman" deb 40 yigit bilan Xorazmga yo'l oldi. To'q qal'asiga yaqin kelgan Yunusxon Urganch shahar devorlarini ko'rdi. Quyosh botgach, uning yigitlari shahar devorlarini mash'ala bilan qo'riqlayotgan soqchilardan bir nechtasini o'ldirib, shahar ichiga kirib bordilar. Nochor ahvolga tushgan shahar hokimi Mahmud sulton Vazirga, Aqatoyxon huzuriga qochdi. Aqatoyxon qo'shini Urganchga kelgach, Najmiddin Kubro maqbarasi yaqinida qonli jang bo'ldi. Unda Aqatoyxon yengilib, o'ldirildi va jasadi Vazirga yuborildi. Aqatoyning katta o'g'li Hojimxon esa Xurosondagi ukalari bilan lashkar to'plab, Urganch yaqinida Amudaryodan kechib o'tdi. Bu xabarni eshitgan Yunusxon shaharni tashlab Buxoroga qochdi, uning o'g'li Qosim sulton esa o'ldirildi. Vaqt o'tib, Sufyonxon va Kolxonning barcha farzandlari vafot etdi va ulardan nasl qolmadi. Avanishxonning o'g'illari Xurosonda, Aqatoyxonning o'g'lonlari esa Xorazmda hukmronlik qildilar. Buchgaxonning Esh ismli o'g'li Xivani, Do'st — Hazoraspni, Buram

⁶ Mirmuhammad Karimov. Xorazm tarixi. — Toshkent: Universitet, 2002

⁷ Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi Turk. — Toshkent: Fan, 1992

⁸ Abulg'oz Bahodirxon. Shajarayi Tarokima. — Toshkent: Fan, 1990

esa Katni boshqardi. 1557-yilda Do'stni xon deb e'lon qildilar, biroq Hojimaxon uni tan olmadi. Buning natijasida Esh sulton lashkar to'plab, Urganch ustiga yurish boshladi. Ammo Qumqal'a yaqinidagi Churnuq degan joyda 8 kun davom etgan jangda Hojimaxonni yenga olmadi. Xivaga qaytgan Eshsulton uyg'ur va naymanlarni o'z yerlaridan quvib chiqardi. Ularning yerlari d'yrmon urug'iga berildi. U yangi lashkar bilan qaytib kelib, Urganch va To'q qal'asi orasidagi maydonda Hojimaxon bilan yana bir hafta davom etgan jangda to'qnashdi. Ammo hech bir tomon g'alaba qozona olmadi. Shunda Eshsulton kechasi lashkari bilan yashirincha Urganchga bordi. Qal'adagi uyg'ur va naymanlardan boshqa aholiga tegmadi. Bir qism aholi esa Vazirga qochdi. Hojimaxon Aqatoyxon o'g'lonlarini yordamga chorlab, Urganchni to'rt oy davomida qamal qildi va nihoyat uni egalladi. "Urganchda Eshsultonni, Hevaqda Do'st sultonni o'ldirib, oq kigizning bir burchagini Ali sulton, uch burchagini esa uning ukasi tutib, Hojimaxonni o'rtada yerga o'tqazib, otiz to'qqiz yoshida, yilqi yilida, tarix 969-yilda (1561-yil) Urganch viloyatida xon qilib ko'tardilar,"⁹ — deb yozadi manbalar. Tarixchi Munisning yozishicha, Hojimaxon o'zining 42 yillik hukmronligi davrida ba'zan Urganchda, ba'zan Xivada yashagan. 1558-yilda esa Xorazmga ingliz elchisi Antoni Jenkinson tashrif buyurdi. U Rossiya podshosi Ivan Grozniydan ruxsat olgan va "London–Moskva savdo kompaniyasi"ning vakili edi. Jenkinson o'z davrida Yevropa, Osiyo va Afrikaning ko'plab mamlakatlarida sayohat qilgan, 1557–1572-yillar orasida Rossiyaga to'rt marta kelgan¹⁰. Xorazmdan so'ng Buxoroga borib qaytgan Jenkinson, qish fasli boshlanib qolgani bois Urganch va Vazir shaharlarida to'rt oy davomida qolib ketgan. Keyinchalik u o'z esdaliklarida Xorazm vohasi haqida qiziqarli ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, u Ko'hna Urganch haqida shunday yozadi: "Urganch qal'asi tekislikda joylashgan va loy devor bilan o'ralgan. Uyjoylar ham loydan qurilgan, ammo tartibsiz barpo etilgandek ko'rinadi. So'nggi yetti yil ichida o'zaro urushlar sababli qal'a to'rt marta qo'ldan-qo'lga o'tgan, shu bois bu yerda savdogarlar kam." Shaharda usti yopilgan bitta uzun ko'cha bor bo'lib, u bozor vazifasini ham bajaradi. Jenkinson Amudaryoning o'zani asta-sekin o'zgarib borayotganini kuzatib, Vaziri va Urganch shaharlarining yaqin kelajakda og'ir ahvolga tushishini to'g'ri bashorat qilgan edi. 1573-yilda Buxoro hukmdori Abdullaxon katta lashkar bilan Xorazmga yurish boshladi. Buni eshitgan Temur sulton Mang'it yaqinidagi Kubatoqdan tortib, Tossoqa qirlarigacha bo'lgan o'zbek va sartrlarni Xivaga to'pladi. Vazir aholisi ham kelib, Xiva qal'asiga yashirindi. Buxoro qo'shinlari Yangiariqqa yetgan paytda Abdullaxon Qulanchi degan joyda to'xtadi. O'n kun o'tgach, "Hoji Muhammadxon Xurosondan lashkar bilan kelyapti" degan xabar tasdiqlandi. Shundan so'ng Abdullaxon Xivaga chopar yuborib, Polat va Temur sultonlarga sulh taklif qildi. Tomonlar o'zaro bir-birining hududiga daxl qilmaslik haqida kelishib oldilar va Buxoro qo'shini orqaga qaytdi.

Keyingi yillarda ham Xiva shahri Buxoro bilan bo'lgan munosabatlarda muhim rol o'ynadi. 1595-yilda Abdullaxon ikkinchi bor Xorazmga yurish qilganida, Hazorasp hokimi Muhammad sulton a'yonlari bilan Xivaga qochdi. Bu yerga to'plangan o'zbek

⁹ A. Ahmedov. Xiva xonligi tarixi bo'yicha tadqiqotlar. — Toshkent: Fan, 2010

¹⁰ Bartold V.V. O'rta Osiyo tarixi. — Toshkent: Fan, 1997

urug'larining boshliqlari bir-biriga ishonmasdan, Pahlavon Mahmud maqbarasiga borib, Qur'onni o'rtaga qo'yib, qasam ichsalar ham, birlashishga muvaffaq bo'la olmadilar. Natijada Temur sulton va Polat sultonning o'g'illari ikki ming xonadondan iborat qavmlari bilan Vazir tomon yo'l oldilar¹¹. Ertasi kuni Buxoroning uch ming kishilik lashkari ularning izidan quvib, Olmaotishgan qal'asi yaqinida yetib oldi. Xivaliklar aravalarni bir joyga to'plab, mudofaa jangini boshladilar. Ko'p mol-mulk va odamlarini yo'qotgan xivaliklarning bir qismi Vazirga qochib borishga muvaffaq bo'ldi. Ularning izidan yetib kelgan Abdullaxon qo'shinlari Vazir qal'asini bir oy davomida qamal qildilar. Qal'ani olishning imkoni bo'lmagach, Abdullaxon sulh taklif qildi. Qaytish chog'ida esa Urganchlik boy-amaldorlarning mol-mulkleri tortib olindi, xalqdan soliq sifatida tangalar yig'ildi. Pul topa olmaganlar o'g'il-qizlarini sotishga majbur bo'ldilar, deb yozadi Abulg'oziy. Shu davrda Kaspiy dengizi tomon oqib o'tgan Daryoliq, Qunadaryo va O'zboy kabi irmoqlar qurib qoldi, ularning atrofida yashovchi aholi esa bu yerlardan ko'chishga majbur bo'ldi. Shoh Hojimxonni yaxshi qabul qildi va unga iltifot ko'rsatdi. Buxoro hukmdori Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min boshchiligidagi lashkarlar Xurosonning barcha hududlarini egalladi va Asfaroyin degan joyda qizilboshlar qamalda qoldi, degan xabarni olgan shoh Abbos katta qo'shin bilan Bastomga ketdi. Shu paytda Hojimxon Urganchda buxorolik sipohlardan 40 nafar, Xivada esa 60 kishi qolganini eshitib, tezda Astarobodga yo'l oldi. Qur'on tog'iga yetganida Hojimxonga taka va yo'mut turkmanlaridan 50–60 kishi qo'shildi. O'rta quduq degan joyda ularga yana shuncha esari turkmanlari qo'shildi. Qo'shini soni ortgan Hojimuhammadxon o'g'illari Arab Muhammadxon va Muhammadquli bilan Urganchga, Polat sultonning o'g'li Bobo sulton esa Xivaga qarab yo'l oldilar. Urganchga kelgan Hojimxon hokim Sari sulton va uning navkarlarini o'ldirtirdi. Xiva devorlarini buzib, qal'aga kirgan Bobo sulton lashkarlari esa Berdi Manglishbiy ismli arbob va unga qarashli 100 dan ortiq navkarni o'ldirdilar. Shundan so'ng yordam bergan turkmanlarga sovg'a-salomlar berib, orqaga qaytardilar. Bobo sulton Hazoraspga, uning ukasi Hamza sulton esa Honqaga bordilar¹². Xorazmdagi ahvoldan xabar topgan Buxoro xoni Abdullaxon Xo'jamquli qushbegiga Hazoraspga borishni buyurdi. Kutilmaganda dushmanning qal'a oldida paydo bo'lganidan hayratga tushgan Bobo sulton 15 navkari, 3 nafar esari turkmani va qal'adagi sartlar bilan mudofaaga kirishdi. Hazoraspga yetib kelgan Abdullaxon qal'ani 4 oy davomida qamal qildi va Bobo sultonni taslim bo'lishga majbur etdi. Bu voqea 1598 yilda yuz bergan edi. Oradan biroz vaqt o'tib, Abdullaxon vafot etdi. Bu haqda Bistomda turgan Hojimxon xabar topgach, shoh Abbosdan ruxsat olib Xorazmga qaytishga shoshildi va sakkiz kun ichida Urganchga yetib keldi. Yangi sharoitda u (Hojimxon) Urganch va Vazirni o'zi boshqara boshladi, Xiva bilan Katni esa Arab Muhammadxonga, Hazoraspni Isfandiyor sultonga berdi. Ikki yildan so'ng Hojimxon Urganch va Vazir qal'alarini boshqarishni Turkiyadan kelgan o'g'liga topshirdi. O'zi esa Xivada kichik o'g'li Arab Muhammadxon huzurida yashadi. Hojimxon davrida Xorazmda o'rnatilgan osoyishtalik tufayli qishloq

¹¹ Mirmuhammad Karimov. Xorazm tarixi. — Toshkent: Universitet, 2002

¹² Mirmuhammad Karimov. Xorazm tarixi. — Toshkent: Universitet, 2002

xo'jaligi va irrigatsiya (sug'orish) qurilishiga e'tibor kuchaydi. Urganch va Kat hokimi Ali Sulton tashabbusi bilan Yangiariq va Tosh Yormish ariqlari qazildi. Ko'p voqealarning shaxsan guvohi bo'lgan Hojimuhammadxon 1601 yilda 83 yoshida vafot etdi. Tarixiy manbalarda Hojimxon davrida Xiva shahri Xorazm xonligi poytaxti sifatida belgilangani qayd etiladi. Shu davrdan boshlab rus manbalarida Xorazmdagi davlat "Xiva xonligi" deb atala boshlandi. Xorazm xonligiga asos solingan tarixiy sana haqida taniqli olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Xususan, akademik V.V. Bartold: "Xorazm xonligiga asos solinishi, aftidan, 1511 yilga to'g'ri keladi"¹³, — deb yozgan. Akademik Ya. G'ulomov esa: "Elbarsxonning Xorazmshoh qilib tayinlanishi Shayboniynxoning o'limidan keyin amalga oshgan va bu voqea 1511 yoki 1512 yilda sodir bo'lgan deb qaralishi lozim",¹⁴ — deb ta'kidlagan. Xiva shahrining xonlik markaziga aylangan sanasi haqida esa turlicha fikr va xulosalar mavjud. Bu masalaga birinchilar qatorida e'tibor qaratgan olimlardan biri — akademik Ya. G'ulomov hisoblanadi. U fan nomzodi bo'lgan davrida, ya'ni 1941 yilda chop etilgan maqolasida Munis Xorazmiyning "Do'stxon — poytaxt shahar Xivada birinchi bo'lib taxtga o'tirdi"¹⁵ degan fikrlariga tayangan holda: "1556 yilda Do'stxon Bo'chg'axon o'g'li Xiva shahrini o'zining poytaxti qildi", — deb yozgan. Bu xulosaning shakllanishiga ehtimol Abul'g'azi Bahodirxonning quyidagi so'zlari ham ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin: "Bo'chg'axonning o'g'lonlari Esh, Do'st va Buram Hevaq, Hazorasp va Katda bo'ldilar. Do'stni xon ko'tardilar. Faqir va kamtar kishi edi. Esh sultonning ko'ngli uchun akasi Do'stni xon qildilar." Xiva shahridagi yodgorliklar tarixini chuqur o'rgangan tadqiqotchi K. Xudoyberganov ham Xiva shahrining poytaxt sifatida tanlangan vaqtini muarrix Munis va akademik Yahyo G'ulomov kabi 1556 yil deb belgilash lozimligini isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, Xiva shahri Do'stxon Bo'chg'axon o'g'li davrida poytaxt qilib tanlangan va Arab Muhammadxon davridan boshlab Xiva shahri markaz bo'lgan davlat — Xiva xonligi deb atalgan. 1959 yilda professor Ya. G'ulomov o'zining 17 yil avval belgilagan sanasidan farqli ravishda, "Arab Muhammadxon davrida markaz Xiva shahriga ko'chirilgan, shu davrdan boshlab xonlik 'Xiva xonligi' nomini olgan", degan boshqa fikrni ilgari surgan. Arab Muhammadxon Xiva xonligi taxtida 1602–1621 yillarda o'tirganini hisobga olsak, Ya. G'ulomov tomonidan keltirilgan xronologik sanalar orasida qariyb 50 yillik farq mavjudligi ayon bo'ladi. Akademik Ya. G'ulomovning keyingi fikrlariga yaqinroq sanalarni yoqlagan tarixchi G. A. Agzamova shunday yozadi: "Xivaning Xorazm poytaxtiga aylanishi 1611–1612 yillarga to'g'ri keladi va bu davrda davlatni boshqargan Arab Muhammadxon hukmronligi bilan tavsiflanadi. XIX asr muarrixi Munis: 'Arab Muhammadxon otasidan so'ng poytaxt shahar Xivada hukmron bo'ldi', — deb qayd etadi." Akademik B. Ahmedov esa o'rta asr tarixchilari Muhammad Tohir va Mahmud ibn Valining ma'lumotlariga tayangan holda, "Xiva XVII asr boshlarida, taxminan 1610–1612 yillarda Xorazmning poytaxtiga aylangan", — deb yozadi. Tarixchi A. Abdurasilov esa xonlik poytaxtining Xivaga ko'chirilgan davridan boshlab, feodal davlat tugaguniga qadar

¹³ Bartold V.V. O'rta Osiyo tarixi. — Toshkent: Fan, 1997

¹⁴ G'ulomov Yo. Xorazmning sug'orma dehqonchiligi tarixi. — Toshkent: Fan, 1957

¹⁵ Munis va Ogahiy. Firdavs-ul iqbol. — Toshkent: Fan, 1999

taxtga o'tgan xonlar sulolasidagi birinchi hukmdor — Hojimuhammad Aqatoyxon ekanini, uning hukmronlik davrini 1557–1603 yillar deb ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Abulg'ozil Bahodirxon. Shajarayi Turk. — Toshkent: Fan, 1992.
Abulg'ozil Bahodirxon. Shajarayi Tarokima. — Toshkent: Fan, 1990.
Munis va Ogahiy. Firdavs-ul iqbol. — Toshkent: Fan, 1999.
Ogahiy M.R. Riyoz ud-davla. — Toshkent: Fan, 2009.
Bartold V.V. O'rta Osiyo tarixi. — Toshkent: Fan, 1997.
Mirmuhammad Karimov. Xorazm tarixi. — Toshkent: Universitet, 2002.
A. Ahmedov. Xiva xonligi tarixi bo'yicha tadqiqotlar. — Toshkent: Fan, 2010.
V.L. Vyatkin. Materialy po istorii Khorezma. — Moskva: Vostochnaya literatura, 1952.
G'ulomov Yo. Xorazmning sug'orma dehqonchiligi tarixi. — Toshkent: Fan, 1957.